

**MAHDUMI A'ZAM MAJMUASINING ASOSIY SAYYOHLIK YO'NALISHLARIDAGI
ROLI VA AHAMIYATI HAMDA UNING ZAMONAVIY IMKONIYATLARI**

Xudayqulova Gulra'no Xadjaqul qizi

*Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar institutining magistranti
axmetovafazilat@gmail.com*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Mahdumi A'zam majmuasining O'zbekiston turizmda tutgan o'рни va uning rivojlantirish imkoniyatlari ko'rib chiqiladi. Mahdumi A'zam majmuasi tarixiy va madaniy ahamiyati jihatdan o'zbek xalqining merosidir. Unda joylashgan marshrutlar, o'z ichiga tarixiy va diniy obidalarni hamda ekoturizm imkoniyatlarni oladi. Tadqiqotda turistik infratuzilmani rivojlantirish, transport tizimini yaxshilash, aqlli marketing strategiyalarni amalga oshirish imkoniyatlari muhokama qilinadi. Ushbu annotatsiya, turizm sohasida Mahdumi A'zam majmuasining o'rnini oshirish uchun zarur bo'lgan asosiy yo'nalishlar va strategiyalarni o'z ichiga oladi hamda mavzuga qiziquvchilar uchun muhim ma'lumot taqdim etadi.

Tayanch iboralar: marshrut, turist, marketing, reklama, QR kod, savdo, servis, ziyoratgoh, maqbara, turistik firma, veb sayt

**РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЯ КОМПЛЕКСА МАХДУМИ АЗАМ НА ОСНОВНЫХ
ТУРИСТИЧЕСКИХ МАРШРУТАХ И ЕГО СОВРЕМЕННЫЕ ВОЗМОЖНОСТИ**

Аннотация: В данной статье рассматривается роль комплекса Махдуми Аъзам в туризме Узбекистан и возможности его развития. Комплекс Махдуми Аъзам является наследием узбекского народа с точки зрения его исторической и культурной значимости. Маршруты, расположенные на его территории, включают исторические и религиозные памятники а также возможности для экотуризма. В исследовании обсуждаются возможности развития туристической инфраструктуры улучшения транспортной системы и реализации интеллектуальных маркетинговых стратегий. Данная аннотация включает основные направления и стратегии, необходимые для повышения роли комплекса Махдуми Азам в сфере туризма, а также предоставляет важную информацию для тех, кто интересуется данной темой.

Ключевые слова: маршрут, турист, маркетинг, реклама, QR-код, продажи, обслуживание, святилище, мавзолеев, туристическая компания, веб-сайт

**THE ROLE AND SIGNIFICANCE OF THE MAKHDUMI AZAM COMPLEX ON THE
MAIN TOURIST ROUTES AND ITS MODERN CAPABILITIES**

Abstract: This article examines the role of the Makhdumi A'zam complex in Uzbekistan's tourism sector and explores its development opportunities. The Makhdumi

A'zam complex is a heritage of the Uzbek people in terms of its historical and cultural significance. The routes located there include historical and religious monuments as well as ecotourism opportunities. The study discusses the possibilities of developing tourism infrastructure, improving the transportation system and implementing smart marketing strategies. This abstract includes the main directions and strategies necessary to enhance the role of the Makhdumi A'zam complex in the tourism sector and provides important information for those interested in the topic.

Keywords: route, tourist, marketing, advertising, QR code, sales, service, sanctuary, mausoleum, travel company, website

Samarqand viloyatida turizmni rivojlantirish va undan olinadigan daromadlarni oshirish maqsadida hukumatimiz tomonidan jadal islohatlar olib borilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 30 sentayabrdagi 828-sonli "Samarqand viloyatining turizm salohiyatidan samarali foydalanish va uni rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" qarorida viloyatning barcha hududlarini rivojlantirish masalasi ko'tarilgan. Biroq shuni alohida ta'kidlashimish kerakki, qadimgi va tariximizda o'ziga xos o'rniga ega bo'lgan qolaversa turistik saloxiyatiga ega bo'lgan Mahdumi A'zam majmuasiga alohida e'tibor berilmadi. Mazkur hujjatda "Imom Al-Buxoriy» majmuasiga tutash hududlarni turizm infratuzilmasini qurish, shuningdek, ziyoratchilar va turistlar uchun qo'shimcha qulayliklar, shu jumladan «halol» standarti bo'yicha umumiy ovqatlanish ob'ektlari, diniy marosimlar va dam olish uchun joylar yaratish bilan birgalikda rivojlantirish" kabi tadbirlar qismi bor xolos.

Mahdumi A'zam majmuasi hamda ushbu mo'tabar shaxs haqida anchagina ma'lumotlarni bosma hamda internet sahifalarida ko'rish mumkin. Jumladan O'zbekiston Musulmonlar Idorasining rasmiy saytida alohida sahifa berilgan bo'lib, ko'proq mazkur shaxs haqida ma'lumotlar kiritilgan. Ma'lumotlarga e'tiborni qaratamiz. Samarqand shahrining janubiy tomonidagi Miyonqol orolida joylashgan Dahbed qo'rg'onida bir tabarruk ziyoratgoh borki, bu joy bugungi kunda ko'pchilik sayyohlar uchun serqatnov manzilga aylangan. Bu yerda, Naqshbandiya tariqatini rivojlantirishda va takomillashtirishda katta xizmatlar qilgan – axloqshunos, faqih va ilohiyotchi olim Sayyid Ahmad ibn Mavlono Jaloliddin Kosoniyning qabri bor. Bu ulug' zot 1461 yili Axsikent viloyati (hozirgi Farg'ona viloyati)ning Koson shahrida tavallud topgan. Yoshligidanoq ilmga chanqoq bo'lgan Kosoniy dastlabki ilmni o'z yurtida olgan, so'ngra, Samarqandga kelib o'qishni davom ettirgan va mavlono Muhammad Qozidan ilm – ma'rifat sirlarini o'rgangan. Sayyid Ahmad Kosoniyning nasablari payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallam avlodlariga borib taqaladi. Shu sabab, u kishining sulolasi xalq o'rtasida mavqeyi baland edi. Kosoniy Samarqand va Toshkentda o'z bilimini oshirgach o'z yurtiga qaytib boradi va ilm-ma'rifat bilan mashg'ul bo'ladi. Shayboniy Jonibek Sulton Kosoniyga elchi yuborib katta hurmat bilan o'z saroyiga chorlaydi. Kosoniy Sultonning taklifiga rozi bo'lib, dastlab, Samarqandga

keladi va so'ngra Karmanada yashay boshlaydi. So'ngra Jonibek Sulton Miyonqoldagi (hozirgi Dahbed qishlog'idagi) yer-suvlarni unga mulk qilib beradi. Shundan so'ng Sayyid Ahmad Kosoniy to umrining oxirigacha shu yerda yashab, 1542 yilda vafot etadi.

Vatanimiz Islom olamida eng ko'p ziyoratgohlar mavjud bo'lgan davlatlardan biri sifatida mazkur ob'ektga faqatgina madaniy ob'ekt sifatida emas balki, turistik ob'ekt, resurs sifatida ham e'tiborni qaratish lozim. Quvonarli tomoni shundaki, Presidentimiz Shavkat Mirziyoyevning shaxsan o'zi mazkur ob'ekt bilan qiziqib, hamda 2025 yilning noyabr oyida tashrif buyurishi natijasida keng ko'lamli bunyodkorlik ishlarining olib borilishiga sababchi bo'ldi.

Hozirgi kunda ziyoratgohda keng ko'lamli rekonstruksiya ishlari amalga oshirildi va oshirilmoqda. Mazkur majmuaning bugungi kundagi umumiy maydoni qariyb 5 gektarni tashkil etadi. Ziyoratchilar uchun sharoitlarni yaxshilash maqsadida maqbara yonida uch qavatli zamonaviy avtoturargoh, kirish darvozasi, kushxona va ma'muriy binolar, tahoratchona, ming kishilik masjid va qo'shimcha ayvonlar qurildi.

Ta'mirlash ishlaridan so'ng ziyoratgoh bir vaqtning o'zida 35 minggaacha ziyoratchini qabul qilish imkoniyatiga ega bo'ladi (avval bu ko'rsatkich 5 ming nafar atrofida edi). Eng muhimi mahalliy hamda xorijiy turistlarga xizmat qilishi mumkin bo'lgan 40 dan ortiq savdo va servis obektlari tashkil etish, ko'kalamzorlashtirish va obodonlashtirish ishlarini davom ettirish rejalashtirilgan.

Yuqorida ta'kidlab o'tilgan ishlarni sarhisob qilgan holda xulosa qilish mumkinki, turizm sohasi bo'yicha mutaxassislar oldida turgan ishlar ham talaygina.

Bu yerdagi asosiy takliflarimiz quyidagilardir:

1. O'zbekiston hamda Samarqand viloyatiga tashkillashtiriladigan turistik marshrutlarda albatta mazkur ob'ektni aks ettirish talabini barcha turistik firmalarga tavsiya qilish lozim;

2. Turistlar ichida erkin harakatlanadigan kishilar ham ko'pligini e'tiborga olib mazkur qadamjo haqida turli kartografik hamda ko'rgazmali medialar jamlangan QR kodli ilova yoki veb saytlarni ishlab chiqish lozim. Bunda 360 gradusli tasvirlar bo'lsa yanada yaxshi bo'lar edi.

3. Majmua viloyatdagi eng muhim transport liniyalaridan biri M-37 yo'lining yoqasida joylashgan. Biroq yo'lni kesib o'tish va xavfsiz harakat uchun piyodalar uchun yuqoridan aylanib o'tadigan joy qurilishi talab qilinadi;

4. Majmuaga xorijdan ham qiziqishlar ortishini e'tiborga olib kamida ikkita xorijiy tilni biladigan mutaxassisni qabul qilishi lozim.

5. Barchaga ma'lumki, majmua faoliyat yuritadigan jomea masjidiga ega bo'lib, juma kunlari faqat nomoz o'qilishini e'tiborga oladigan ko'rsatgichlar hamda faqatgina dindorlar kira oladigan chegara zonalari belgilari joylashtirilishi lozim (Turkiyaning Stambul shahridagi Ayo-Sofiya masjid muzeyi tajribasiga asosan).

Biz qilinishi lozim bo'lgan ishlarning bir qismini biroq eng muhimlarini ko'rib chiqishga harakat qildik. To'g'ri yo'nalish va aqlli marketing strategiyalari bilan bu majmua O'zbekistonning muqaddas turizm markazlaridan biriga aylanishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Uvatov U. Buyuk allomalar yurti – Toshkent: O'zbekiston, 2020.
2. Kattayev K. /Mahdumi A'zam tarixi va mukammal Dahbidiylar tariqati / – Toshkent: Mashhur-press, 2016.
3. Yo'ldoshxo'jayev H. / "Tarix-i Xumuliy" asari O'zbekiston tarixi bo'yicha noyob manba // Istiqlol yillari: milliy-diniy qadriyatlarning xalqqa qaytishi: O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 10-yilligiga bag'ishlangan ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – Toshkent: 2001.
4. Ma'naviyat yulduzlari / – Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi, 1999.
5. Yo'ldoshxo'jayev H. / Musoxon Dahbidiyning Naqshbandiya-Mujaddidiya tariqatining rivojidagi o'rni // O'zbekistonning islom sivilizasiyasi rivojiga qo'shgan hissasi: tezislar to'plami. – Toshkent: 2007.
6. Шовосил Зиёдов, Қодирхон Маҳмудов. Ўрта асрларда яшаган машхур самарқандлик . алломалар. Ғ.Ғулом нашриёти. Тошкент-2019. 260 бет
7. <https://muslim.uz/>
8. <https://meros.uz/object/mahdumi-azam-majmuasi>
9. www.arboblal.uz
10. www.ziyouz.uz
11. www.wikipedia.org
12. <https://kun.uz/news/2025/11/25/>